

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-
QURILISH UNIVERSITETI**

ARXITEKTURA FAKULTETI

"LANDSHAFT DIZAYNI" kafedrası



"TASDIQLAYMAN"

Rektor

Chq. Turkyilmaz

2023-yil

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 24.11.2023 yilgi 507-sonli buyurug' ijrosini ta'minlash maqsadida, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitet talabalarining qishki ta'til davrini mazmunli o'tkazish maqsadida "Landshaft qurilmalari" fanidan onlayn olimpiada o'tkazish to'g'risidagi

N I Z O M

SAMARQAND - 2023

Onlayn olimpiada o'tkazish bo'yicha Nizom Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida Landshaft dizayni ta'lim yo'nalishlari uchun "Men Dizayner" shiori asosida onlayn olimpiada o'tkazish bo'yicha tuzilgan.


Tuzuvchilar:

E.B. Kadirov


- "Landshaft dizayni" kafedrasini o'qituvchisi

Mazkur Nizom Landshaft dizayni kafedrasining 2023 yil 27 noyabrdagi 7-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan.


Talabalar bo'limi boshlig'i:


F. Isrofilov

Fakultet dekani:


D.Z. Kamalova

Kafedra mudiri:


X.B. Xasanova

KIRISH

Talabalarning onlayn fan olimpiadasini o'tkazish bo'yicha tuzilgan ushbu dastur «Landshaft dizayni» yo'nalishida o'qitiladigan fanlar asosida ishlab chiqilgan.

Dastur Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejasi, davlat ta'lim standartlari, malaka talablari hamda namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Olimpiadaning maqsadi: universitet talabalarining o'quv, ilmiy va ijodiy faoliyatini rag'batlantirish, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, talabalarning qishgi ta'tilini samarali tashkil qilish, ularning ijodiy yoki kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Onlayn olimpiadaning hakamlar hay'ati tarkibi:

X.B. Xasanova	-Rais, "Landshaft dizayni" kafedrası mudirasi
SH.M Kurbanov	-Rais o'rinbosari, "Landshaft dizayni" kafedrası katta o'qituvchisi
D.E. Karimova	-mas'ul kotiba, "Landshaft dizayni" kafedrası stajor o'qituvchisi
U.N. Karimov	-a'zo, "Landshaft dizayni" kafedrası katta o'qituvchisi
E.B. Kadirov	-a'zo, koordinator "Landshaft dizayni" kafedrası o'qituvchisi.

Onlayn olimpiadaning apparatsiya hay'ati tarkibi:

Axundjanov A.A	- Xodimlar va talabalar boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi
Sirojiddinov O'.S	- Sifat nazorati koordinatori
Yasakov Z.X	-Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplains-nazorat " bo'limi boshlig'i
U.N. Karimov	-a'zo, "Landshaft dizayni" kafedrası katta o'qituvchisi
E.B. Kadirov	-a'zo, koordinator "Landshaft dizayni" kafedrası o'qituvchisi.

1-bob. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur dastur talabalar o'rtasida onlayn fan olimpiadasini (keyingi o'rinlarda Olimpiada deb yuritiladi) tashkil etish, o'tkazish hamda unda qatnashish va olimpiada g'oliblarini aniqlash tartibini belgilaydi.

1.2. Olimpiadani o'tkazishga Samarqand arxitektura - qurilish universiteti mas'ul hisoblanadi.

1.3. Olimpiada oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda OTM deb yuritiladi) talabalarining mutaxassislik va umumkasbiy fanlar bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish, rivojlantirish va ularning iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga keng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan.

1.4. Olimpiadani tashkil etish yuzasidan Vazirlikning buyrug'i asosida talabalar o'rtasida o'tkaziladigan fan olimpiadasini onlayn shaklida o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi yuqoridagi shakl bo'yicha tasdiqlangan.

1.5. Tashkiliy qo'mita olimpiadaning tashkiliy-texnik va axborot tizimlarini tashkil etish, olimpiada g'oliblari va ishtirokchilarini rag'batlantirish vazifalarini ta'minlaydi.

1.6. Olimpiada «Landshaft dizayni» kafedrasi tasarrufidagi fanlardan, qishki ta'til mobaynida onlayn ijodiy ish taqdimoti shaklida o'tkaziladi.

1.7. Olimpiadaning adolatli o'tkazilishini nazorat qilish hamda natijalarini tahlil etish fakultet dekanati va mas'ul kafedra tomonidan amalga oshiriladi.

2-bob. FAN OLIMPIADASINI ONLAYN O'TKAZISH TARTIBI

2.1. Ishtirokchilar asosan 2-3-4-bosqich talabalari ishtirok etishlari nazarda tutilgan. Talabalarga Landshaft qurilmalari (kichik me'moriy shakllar, art obyektlar, instalyatsiyalar, dekorativ landshaft elementlar) asosida topshiriqlar shakllantiriladi.

3.2. Olimpiadaning 2.3. band bo'yicha belgilangan muddatda talabalar ro'yhatdan o'tishadi hamda taklif qilinayotgan ijodiy ish variantini yuklashadi.

3.4. Fayllar quyidagi talablarga javob berishi shart.

Rasm: rang rejimi – RGB; og'irligi – maksimum 50 Mb; format- jpg., png., tiff, gif. Taqdimot: og'irligi – maksimum 100 Mb; format – mp4., ppt., pptx.

4-bob. BAHOLASH MEZONI

Onlayn fan olimpiadasi bo'yicha barcha turlar kesimida baholash mezonini quyidagicha amalga oshiriladi:

Jami 100 ballik tizimda baholanadi.

Jumladan: Ijodiy ishlar kompozitsion yechimi (35 ball), ishtirokchining grafik mahorati (35 ball), komponovka va nisbatlar (30 ball),

5-bob. OLIMPIADANI YAKUNLASH TARTIBI

Olimpiada natijalari Tashkiliy ko'mita tomonidan SamDAQU rasmiy veb-telegram kanallarida e'lon qilinadi.

6-bob. NIZOLARNI KO'RISH TARTIBI

Olimpiada natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat ichida tushgan yozma shikoyat va arizalar Tashkiliy qo'mita tomonidan onlayn shaklda jismoniy va yuridik shaxslar murojati to'g'risidagi qonunga muvofiq hal etiladi.

Eslatma! Agarda talaba fan olimpiadasi davom etayotgan davrda o'zi yoki o'zi tahsil olayotgan OTM tomonidan yo'l qo'yilgan texnik nosozliklar sababli onlayn aloqadan chiqib ketsa;

Ilmiy rahbari yoki boshqa mutaxassisdan yordam olsa;

Tayyor (oldindan tayyorlab qo'yilgan) loyihalardan foydalanishga urinsa va shu kabi nomaqbul ishlarni amalga oshirsa, bu holatda shaffoflik va haqqoniylikni ta'minlash maqsadida talaba fan olimpiadasidan chetlashtiriladi va bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

2.2. Olimpiada masofaviy formatda o'tkaziladi. Ishtirokchilar o'z ijodiy ishlarini <https://t.me/landshaftdizaynitalabalar> havolasiga 2024-yil 5-yanvargacha taqdim etishlari kerak bo'ladi.

2.3. Olimpiadada ishtirok etuvchi talabalar **2023-yil 25-dekabr**dan – **2024-yil 5-yanvargacha** – topshiriqlar havolaga yuklash kerak.

2.4. **2024 yil 8-9 yanvar kunlari** – ijodiy ishlarni tekshirish

2.5. **2024 yil 10 yanvar** - Olimpiada g'oliblarini saralash va taqdirlash.

2.6. Har bir ishtirokchiga faqat 1 ta ish topshirilishi ruxsat etiladi

2.7. **Ishga qo'yiladigan talablar:**

Topshiriq A3 formatda ortogonal proeksiya talablari asosida amalga oshiriladi. Qog'ozga joylashtirish tartibi ishtirokchi tomonidan mustaqil ravishda tanlanadi. Loyiha qo'l grafikasi yoki kompyuter grafikasi yordamida bajariladi. Varaqning yo'nalishi vertikal yoki gorizontal bo'lishi mumkin. Varaqda matnli tasnifnoma (bayonnoma) bo'lishi kerak. Ish *jpeg formatida yuklanadi (300 dpi gacha).

2.8. **Materiallar va ish qurollari:**

Qo'l texnika grafikasida quyidagi ish qurollari qo'llanishi mumkin: grafitli qalamlar, o'chirg'ich, gelli va sharikli ruchkalar, flomasterlar, rangli qalamlar, akvarellar, guash. Ishni aralash texnikada bajarishga ruxsat beriladi.

Kompyuter grafikasi texnologiyasida: 2D grafika va 3D modellashtirish dasturlari.

2.9. Olimpiada xujjatlarini, ishtirokchilar bajaradigan ishlarni, tarqatma materiallarni qabul qilishda, almashishda va hay'at a'zolari o'zaro muloqot o'rnatishda boshqa aloqa tizimlari (telegram) ham qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

2.10. Olimpiadani o'tkazish jarayoni va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar SamDAQU rasmiy veb-saytlarida yoritiladi.

3-bob. FAN OLIMPIADASINING TURI VA SHAKLI

3.1. Olimpiadani onlayn o'tkazish maqsadida maxsus telegram-guruh ishga tushirilgan. (Ulanish uchun havola - <https://t.me/landshaftdizaynitalabalar>) Olimpiada topshirig'i bo'yicha qatnashuvchilar ushbu kanalga ulanishlari mumkin.

Olimpiadada ishtirok etishga “Landshaft dizayni”, ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha
tehsil olayotgan 2-3-4-bosqich talabalari taklif etiladi.




@ELSHODKADYROV

Olimpiada koordinatori: Kadirov Elshod Baxtiyarovich,

tel. +998933518682, el. pochta:

e.kadirov@samdaqu.edu.uz



@LANDSHAFTDIZ
AYNITALABALARI

<https://t.me/landshaftdizaynitalabalari>